



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Melibayeva Ruzaxon Nasirovna

DSc., Psixologiya Fanlari doktori

Raxmataliyeva Gulmira O'tkirjon qizi

Toshkent shahridagi Bucheon universiteti magistranti

gulmiraabdurahmonova2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14603251>

Bugungi jadal rivojlanish, o'sish va rivojlanish davrida axborot texnologiyalarining o'rni farzandlarimiz tarbiyasining eng yuqori qismini egallamoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"dan yoshlarning vatanga sadoqat tadbirkorlik, irodalik, makfuraviy, immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bagrikenglik, huquqiy, madaniyat, intellektual fikrlash, mehnatsevarlik kabi bilim va ko'nikmalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining birinchi bobida aynan shu maqsadlar va vazifalar berib o'tilgan: Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.






Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas. Shu munosabat bilan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasini (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari mavjud. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan

qahramonlikning belgisidir. Alpomish dostoni, o'zining boy ma'nosi va axloqiy saboqlari bilan ajralib turadi. U, asosan, tarixiy to'fonlardan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan shaxslar orqali, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, oliyanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarini ifodalaydi. Bu doston vatanparvarlik fazilatlarini ulug'laydi balki bolalarimizda muhim axloqiy saboqlarni yetkazadi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridagi "Haqqoniyat" bobida rostlik va to'g'ri so'zlik insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb hisoblanadi. Avloniy, shuningdek, bola tarbiyasida o'sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e'tibor beradi. Bu, o'z navbatida, yurtimizning ma'naviyati va axloqi uchun muhimdir. U shuni ta'kidlaydiki, yaxshi tarbiya olingan avlodlar kelajakda vataniga, xalqiga xizmat qilishda muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari "Turkiy guliston yoqud axloq" nomli asarida "... bilim bizning aqlimizni va bizninng xotiramizni qilich kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi" - deb yozadi. Undan tashqari "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir ." degan hikmatlari ham bejiz emas.





Alisher Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan. U, axloqiy fazilatlarini, jamiyatda tinchlik va barqarorlik o'rnatish uchun zarur deb hisoblaydi. Navoiy shunday deydi: "Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir". Bu g'oya, asosan, odamlar o'rtasida hurmat va samimiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Vatanparvarlik fazilatlarini, el-yurtimizga sadoqat, matonat, bag'rikenglik kabi axloqiy tamoyillar orqali namoyon bo'ladi. O'zligini saqlagan inson, hayotiy sinovlar va to'fonlarga qarshi turish, o'z vatanini, xalqini sevishtirish va ularga sadoqatli bo'lishi zarur. Bu g'oyalar, avlodlarni tarbiyalashda va jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, "Alpomish" dostoni, Abdulla Avloniyning va Alisher Navoiy ijodining axloqiy saboqlari bizga juda muhimdir. Ular, yosh avlodni tarbiyalashda, ularga vatanparvarlik fazilatlarini o'rgatishda, ahloqiy jihatdan yetuk insonlar bo'lishlariga yordam beradi. O'zligini saqlagan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'z vataniga sadoqatli bo'lgan insonlar yurtimizning kelajagini belgilaydi.

A.Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarida odob, axloqqa oid g'oyalar ilgari surilgan. Insonparvarlik g'oyalari ulug'langan. Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Koshg'ariy, Yusuf Xos Hodjib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Ularning aytishicha: "Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: "Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa, avvalo, oilada shakllanadi. Ta'lim – tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi. Abu Rayhon Beruniy esa, bilimni umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning asosiy kaliti sifatida ko'radi. U ilm-fan, madaniyat va





ma'rifatning inson hayotidagi ahamiyatini, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayotidagi o'rnini yuksak baholaydi. O'z navbatida, bu qarashlar ham Forobiyning ta'limotlarida aks etadi. O'qituvchilik va ta'lim jarayonlari orqali insonning yuksak ma'naviy qiyofasini shakllantirish, jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Forobiy (Al-Farabi) o'zining pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya haqidagi falsafiy fikrlari orqali inson ruhiyatini va madaniy-ma'naviy olamini chuqur o'rganadi. U insonni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turuvchi qobiliyatlar, ruhiy kuch va aqlni alohida e'tiborga oladi. Forobiy, insonning o'z-o'zini rivojlantirish va o'rganish jarayonida ilm va ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikrlariga ko'ra, inson faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham ahamiyatga ega bo'lgan bilim va madaniyatni rivojlantirishi zarur. U "Baxt saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi" va "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida" kabi asarlarida insonning ma'naviy rivojlanishi, ilm-ma'rifatga bog'liqligini izohlaydi. Forobiy, bilim va ma'rifatli odamlarning yomonliklardan uzoqlashishi va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Forobiy o'z asarlarida bilish jarayonini ruhiy va aqliy faoliyat sifatida ko'rib, insonni ma'naviy jihatdan boyitish, unga baxt va saodatga erishishda yordam beradigan vosita sifatida ajratadi. Bu esa uning pedagogik qarashlarida ma'rifat va ilmni birlashtirgan holda inson hayotini yaxshilashga qaratilgan yondashuvini namoyon etadi.

Buyuk mutafakkirlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar.

Alisher Navoiy, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Bugungi kunda zamonaviy fan tizimida fanlararo yondashuv rivojlanib borayotgan asosiy yo'nalish hisoblanadi. Bunda O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning beqiyos xizmatlari bor. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rin olgan. Ular jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda pedagogik-psixologik jihatdan yondashuvda biz albatta qadimdan sharq va g'arb mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari bilan tanishgan bo'lishimiz va albatta tarbiya masalasida buyuk mutafakkirlarimizning qarashlarisiz tasavvur





qila olmaymiz. Qadimda farzand tarbiyasida juda ko'plab buyuk mutafakkirlarimiz o'z qarashlarini bizlarga qoldirib ketishgan. Jadidchilik davrida ham tarbiya masalasi, ta'lim masalasi eng katta dolzarb masalalar qatorida turgan. Shu sababli ham har bir millat o'z tarixiga ega. Albatta bu tarixni bilmasdan inson shaxs sifatida rivojlanishi ham ma'naviy rivojlanishi ham mumkin emas degan tushunchaga ega bo'lamiz. O'z millati, uning tarixi bilan inson ma'naviyatli hamda ma'rifatli shaxs bo'lib yetishadi. Farzandlarimizga ham maktabgacha yoshdagi bolalarimizga ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviyat burchaklarining tashkil etilishi hamda ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatlarda axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodlaridan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ilk qadam" Takomillashtirilgan Davlat o'quv dasturi 2022 yil 4 fevral
2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori
3. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud-axloq" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi' 358-2004 D avlat ilmiy nashriyoti, 2004.
4. Qodirova Madinabonu Qobuljon qizi Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning insonparvarlik va ma'naviy-marifiy ahloqini rivojlantirish hamda shakllantirish 6-jild 5-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.05.2023
5. A.Navoiyning "Mahbub-ul qulub" Toshkent Yoshlar nashriyot uyi, 2018-172 bet.

